



KO'P MADANIYATLI DUNYODA PEDAGOGIK TA'LIM: TARIX VA HOZIRGI ZAMON

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND MODERNITY

**PROCEEDINGS
OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**



SAMARQAND - 2025

International Scientific and Practical Conference
PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND
MODERNITY

June 4, 2025, Samarkand, Uzbekistan
Conference Proceedings

JA Inkwell Publishing House
Arizona, USA

**“KO‘P MADANIYATLI DUNYODA PEDAGOGIK TA‘LIM: TARIX VA HOZIRGI ZAMON”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI
2025-yil 4-iyun**

**CONFERENCE PROCEEDINGS
PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND
MODERNITY
June 4, 2025**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
“ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ МИРЕ: ИСТОРИЯ И
СОВРЕМЕННОСТЬ”
4 июня 2025 г.**

**“TESKARI O‘QITISH” MODELI ORQALI O‘QUVCHILAR MUSTAQIL TA‘LIM OLISH KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH**

*Hamidova Laylo Kamildjonovna
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti. Samarqand viloyati*

Annotatsiya. Mazkur tezisda teskari o‘qitish (Flipped Learning) modeli orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta‘lim olish kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida modelning ta‘siri amaliy misollar bilan asoslab berilgan..

Kalit so‘zlar: teskari o‘qitish, boshlang‘ich ta‘lim, mustaqil ta‘lim, kompetensiya, innovatsion ta‘lim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020-yildagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT – industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida oliy ta‘lim tizimida axborot texnologiyalar sohasini rivojlantirish, fanlarni o‘qitishda ta‘lim jarayonini integratsiyalash kabi bir qancha masalalar ko‘rib chiqilgan. Ta‘lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta‘lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom”, “sun‘iy intellekt” va “virtual haqiqat” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aralash ta‘lim (blended learning) texnologiyasining ko‘plab samarali modellari mavjud bo‘lib, teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi joy almashinuvi modeli (Station Rotation Model)ning sub-modeli hisoblanadi. An‘anaviy ta‘lim va masofaviy ta‘limni o‘z ichiga olgan teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi TOR-1000 reytingidan samarali foydalanib, yuqori natijalarga erishilmoqda [1].

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan biri bo‘lgan teskari o‘qitish (flipped learning) modeli samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun teskari o‘qitish orqali mustaqil ta‘lim olish kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasi tahlil qilinadi.

Flipped learning – bu o‘quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va o‘qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat[2].

Teskari o‘qitish modeli – bu an‘anaviy dars jarayonini “teskari” tashkil etish orqali ta‘lim samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Unda asosiy bilimlar uyda (video, audio, interaktiv topshiriqlar orqali) o‘zlashtiriladi, sinfdagi vaqt esa muhokama, amaliyot va refleksiya uchun sarflanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun moslashtirilgan teskari o‘qitish shakli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

- Uyda bajariladigan bosqich: O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan oddiy video darslar (5–7 daqiqa), rasmlar, audiolar, animatsiyalar orqali asosiy bilim beriladi.

- Sinfdagi faoliyat: O‘quvchilar uyda o‘zlashtirgan bilimlar asosida jamoaviy ishlaydi, savol-javoblar, rolli o‘yinlar, topshiriqlar bajaradilar.

Mustaqil ta‘lim olish kompetensiyasi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- Ma‘lumotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash.
- Shaxsiy o‘quv faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish.
- O‘z o‘rganishidan natija chiqarish
- Mas‘uliyatni his qilish va o‘zini baholash.


Quyida 3-sinf ona tili darsida “teskari o‘qitish” modelidan foydalanish bo‘yicha namunaviy dars rejasini keltiramiz.

Dars mavzusi: “Sifat so‘z turkumi”

Uyga vazifa sifatida oldindan o‘qituvchi tomonidan “Sifat so‘z turkumi” mavzusida tayyorlangan videodarsni o‘rganib kelish o‘quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. Video ichida savollar va rasmlar misollar berilgan bo‘lib o‘quvchilar ushbu vazifani mustaqil bajaradilar.



Sifat so'z turkumi



Sifat so'z turkumi



- Sinfdagi faoliyat:
- Darslikda berilgan mashqlar o'qituvchi rahbarligida bajariladi.
 - O'quvchilar video asosida 3 ta yangi sifat so'zni keltiradi.
 - "Kim topqir?" o'yini orqali sifatlar ajratiladi.
 - Rasm asosida sifatli gaplar tuzish vazifasi beriladi.
- Uyga vazifa: Keyingi mavzuga doir videodarsni organib kelish topshiriladi.
- Natijalar (tajriba asosida) quyidagicha

No	Ko'rsatkichlar	Darsdan oldin (%)	Darsdan so'ng (%)
1	O'quvchilarning darsga tayyor holda kelishi	40%	80%
2	Faol ishtirok etuvchi o'quvchilar soni	60%	90%
3	Mustaqil fikrlash orqali javob berganlar	45%	85%
4	Uy vazifasiga nisbatan javobgarlik darajasi	55%	88%
5	O'quvchilarning o'z bilimiga qilish ko'nikmasi	35%	75%

Xulosa va takliflar

Teskari o'qitish modeli boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'quvchilarni aktiv fikrlash, javobgarlikni his qilish, o'zlashtirgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasi rivojlanadi.

Takliflar:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun maxsus teskari o'qitishga oid treninglar tashkil etish.
2. Boshlang'ich ta'lim fanlar uchun yoshga mos teskari dars ishlanmalar bankini yaratish.
3. Teskari o'qitish samaradorligini muntazam monitoring qilish uchun diagnostik vositalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020-yildagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT – industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <http://www.lex.uz>
2. Qo'ysinova G. H. O'quvchilar mustaqil ta'limini blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. Ilmiy-amaliy konferensiya.2023,

**PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD:
HISTORY AND MODERNITY**

3. Xolmirov B. O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma –T.: "Yetakchi nashriyoti". 2024, 32 b.

4. Корнев М.Н. Перевернутое обучение - путь интенсификации современного урока. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании». 2016.

5. <https://cyberleninka.ru>